

**UZUMNING KISHMISHBOP NAVLARINI YERTOK USULIDA  
O'STIRISHDA TUPLAR KATTALIGI VA ULARNING MORFOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**K.S. Sultonov<sup>1</sup>, P.E. Egamberdiev<sup>2</sup>, I.S. Jo'lbekov<sup>3</sup>.**

*Toshkent davlat agrar universiteti<sup>1</sup>, Guliston davlat universiteti<sup>2,3</sup>.*

**Annotatsiya.** Tok tupi hamda zang novdaning kattaligi va uning barg bilan qoplanish darajasi ko 'p holatda tok tupining yoshi o'stirish usuli va qoldirilgan yangi novdaning dastlabki hosildorlik ko 'rsatkichi bo 'lib xizmat qilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** novda, zang novda, tup, kshmishbop, hosildorlik, o'g'itlar, mineral moddalar.

**Аннотация.** Приведены размеры ствола лозы и ржавой ветви, уровень ее листового покрытия во многих случаях, указан возраст ствола лозы, способ роста и начальная продуктивность левой новой ветви.

**Ключевые слова:** ветка, ветка ржавчины, куст, кишмишбоп, урожайность, удобрения, минеральные вещества.

**Abstract.** The size of the vine trunk and rust branch and the level of its leaf cover are presented in many cases, the age of the vine trunk and the method of growth and the initial productivity of the left new branch are given.

**Key words:** branch, rust branch, bush, kshmishbop, productivity, fertilizers, mineral substances.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda uzumning kishmishbop va sharobbop navlarida tokning tik simbag'az usulida etishtirish orqali uzum hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, uzumning kishmishbop navlarini etishtirishda zang va novdalarning uzum hosildorligi va sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 30-maqсадидаги «qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish»<sup>1</sup> hamda tumanlarni aniq mahsulot turini etishtirishga, jumladan bog'dorchilikka 46 ta, uzumchilikka 48 ta tumanni ixtisoslashtirish, ushbu tumanlarda plantatsiyali usulda 25 ming hektar mevali bog', 50 ming hektar uzumzor ekilishini ta'minlash muhim vazifa qilib belgilangan. Bu borada uzumning kishmishbop navlarini istoqbolli o'stirish usullarini tanlash, uzumning kishmishbop navlariga o'stiruvchi moddalarni qo'llash usullari, fenologik fazalarning o'tishiga bog'liqligi va zang va novdalarning qoldirish me'yorlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida uzumning Kishmish cherniy navi, Kishmish beliy ovalniy, Kishmish sogdiana, F1 Qora kishmish, F1 Oq kishmish, F1

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон

<https://tiiamebb.uz>

<https://uz-conference.com>

Pushti Kishmish navlari zang novdalar me'yorlari xizmat qilgan.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tajribalar X.Ch.Bo'riev, N.Sh.Enileev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan «Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014) [1.], M.A.Lazarevskiyning «Metodo' botanicheskogo opisaniya i agrobiologicheskogo izucheniya sortov vinograda» (1946), Vitkovskogo V.L. Izuchenie sortov vinograda (metodicheskie ukazaniya) (1988), nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va uslublar bo'yicha o'tkazilgan [2].

Tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturlarida, 0,95% ishonchlik oraliq'i bilan B.A.Dospexov ko'rsatgan uslubi bo'yicha hisoblangan [3].

Tadqiqot natijalari. Tok tupi hamda zang novdaning kattaligi va uning barg bilan qoplanish darjasini ko'p holatda tok tupining yoshi o'stirish usuli va qoldirilgan yangi novdaning dastlabki hosildorlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois o'rganilayotgan uzumning kishmishbop navlari etishtirishda organik va mineral o'g'itlarni qo'llash mazkur ko'rsatkichlarini aniqlash uzumning o'sish kuchini hamda o'stirish usulini tanlash ushbu jarayonining muhim belgilaridan biri hisoblanadi[4;5].

Uzumning kishmishbop navlarini ertok usulida etishtirishda har hil oziqa moddalarning tokni o'sish kuchini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajribada har bir navning tup kattaligi va ularning morfologik xususiyatlarini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, zanglar va navdaning uzunligi 11,8-18,3 m. navga, o'stirish usuli va variantga qarab, to'rt-sakkiz tagacha oraliq chegarada bo'ldi.

Uzumning Kishmish cherniy nazorat variant navida bir tupdag'i zanglar soni 3 dona, zang novdaning uzunligi 6 m, bir tupdag'i novdaning o'rtacha soni 9,0 dona, bir tupdag'i novdalarning umumiyligi uzunligi 8,1 m va zang novdaning uzunligi 14,1 m bo'lishi aniqlandi. Nazorat variantga nisbatan Kishmish beliy ovalniy tok tupida bir tupdag'i zanglar soni nazorat variantdan bir dona ko'p, zong novdaning uzunligi 1,2 m yuqori, bir tupdag'i novdalarning o'rtacha soni 0,3 dona kam, bir tupdag'i novdalarning umumiyligi uzunligi 0,2 m va zang novdaning uzunligi 1,0 m yuqori bo'lishi qayd etildi. Uzumning Kishmish Sogdiana tok tupida bir tupdag'i zanglar soni nazorat variant bilan teng, zang novdaning uzunligi 1,8 m kam, bir tupdag'i novdalarning o'rtacha soni 2,8 dona kam, bir tupdag'i novdalarning umumiyligi uzunligi 1,5 m kam va zang novdaning uzunligi 1,3 m kam bo'lishi kuzatildi. F1 Qora kishmish bir tupdag'i zanglar soni nazorat varianti bilan teng, zang novdaning uzunligi 0,7 m yuqori, bir tupdag'i novdalarning o'rtacha soni 1,0 dona kam, bir tupdag'i novdalarning umumiyligi uzunligi 0,3 m yuqori va zang novdalarning uzunligi nazorat variantdan 1,0 m ko'p bo'lishi qayd etildi. F1 Oq kishmish navida bir tupdgani zanglar soni nazorat variantdan 2,0 dona ko'p, zang novdaning uzunligi 3,1 m yuqori, bir tupdag'i novdalarning o'rtacha soni 0,3 dona kam, bir tupdag'i novdalarning umumiyligi uzunligi 0,4 m va zang novdalarning uzunligi nazorat variantdan 3,5 m yuqori bo'lishi qayd etildi.

1-jadval

***Yer tok usulida uzumning kishmishbop navlarida zanglar va novdalar  
uzunligi (2021-2023 yy.)***

No	Variantlar	Bir tupdagizanglar soni, dona	Zang novdaning uzunligi, m	Bir tupdaginovdalar ning o'rtacha soni, dona	Bir tupdaginovdalarning umumiyyuzunligi, m	Zang va novdanin g uzunligi, m
1	Kishmish cherniy (nazorat)	3	6	9,0	8,1	14,1
2	Kishmish beliy ovalniy	4	7,2	8,7	7,9	15,1
3	Kishmish Sogdiana	3	5,2	6,2	6,6	11,8
4	F1 Qora kishmish	3	6,7	8,0	8,4	15,1
5	F1 Oq kishmish	5	9,1	9,1	8,5	17,6
6	F1 Pushti Kishmish	6	9	8,7	9,3	18,3
	Sx	0,17	0,05	0,2	0,02	0,05
	ЭКФ05	1,0	0,2	0,9	0,1	0,2

F1 Pushti Kishmish navida bir tupdgani zanglar soni nazorat variantdan 3,0 dona ko‘p, zang novdaning uzunligi 3,1 m yuqori, bir tupdagini novdalarning o'rtacha soni 0,3 dona kam, bir tupdagini novdalarning umumiyyuzunligi 1,2 m va zang novdalarning uzunligi nazorat variantdan 4,2 m yuqori bo‘lishi qayd etildi.

**Xulosa.** Uzumning kishmishbop navlarini zang novdalarni qoldirish uzumning daslabki hosildorlik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Zang novdalarni kam yoki ko‘p qoldirish uzmning yashil novdalar bilan qoplanish darajasiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Zang va novdalarni meyyorida qoldirilsa uzumning hosildorligi va hosil sifatiga ijobiy ta’sir qilishi o‘rganildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Buriev X.Ch., Enileev N.Sh. va b. Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o’tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvar metodikasi. – T., 2014. – 2-51 b.
2. Vitkovskogo V.L. Izuchenie sortov vinograda (metodicheskie ukazaniya).– Leningrad.–1988.–S. 58
3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opo‘ta. – M.: Agropromizdat. - 1985. – S. 311-320.
4. Temurov Sh. «Uzumchilik» ma’ruza matnlari Toshkent –2004.–45-50-b
5. Egamberdiev P.E. Uzumning xo‘raki navlarini voish usulida etishtirishda kurtak yuklamalarini uzum hosildorligi va sifatiga ta’siri. – dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – B. 52-85.
6. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of

International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).

7. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
  8. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
  9. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
  10. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
  11. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
  12. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
  13. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
  14. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
  15. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб сугориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
  16. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
  17. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиков Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
  18. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiyev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
  19. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G'О'ZANI SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
  20. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.
-